



MAMLAKATIMIZDA VA XORIJIY MAMLAKATLARDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI

Amaliy rahbar Ergasheva Ba'рно Ziyavitdin qizi
Nizomiy nomidagi TDPU, „Maktabgacha ta'lim metodikasi“ kafedra o'qituvchisi
barnoergasheva90@gmail.com

Qulbulova Rayhona Anvar qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim
fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
rayhonaqulbulova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif O'zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimining ahamiyati, uning shakl va mohiyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, tarbiya, tizim, qiyosiy pedagogika, komparativizm, Germaniya, noyob yapon usuli, Fransiya, Italiya.

Annotation: In this article, the author talks about the importance of preschool education system in Uzbekistan and foreign countries, its form and essence.

Keywords: Preschool education, upbringing, system, comparative pedagogy, comparativism, Germany, unique Japanese method, France, Italy.

Аннотация: В данной статье автор рассказывает о значении системы дошкольного образования в Узбекистане и зарубежных странах, ее форме и сущности.

Ключевые слова: Дошкольное образование, воспитание, система, сравнительная педагогика, компаративизм, Германия, уникальный японский метод, Франция, Италия.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasiga bugungi kunda juda katta e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining nufuzi va o'рни toboro yuksalib borayotgani hech kimga sir emas. Biroq, o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada



emasligini ko'rsatmoqda. Davlatimizda maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimining joriy etilishini ta'minlash, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallarni tayyorlash va ishlab chiqarish kabi bir qator vazifalarni o'z oldoga

maqsad qilib qo'ydi. Dunyo miqyosida maktabgacha ta'limni rivojlantirish, ularni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart - sharoitlar yaratish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga, albatta, erishamiz", - deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi" tashkil etilganligi ham so'zlarimning yaqqol isbotidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrov esa 65 % dan 72 % gacha oshgani yurtimizda qilinayotgan ishlarning natijasidir.

O'zbekiston ta'lim jarayoniga xorijiy davlatlar ta'limi tajribasini olib kirish muammosini o'rganishda mamlakatlar orasida ta'lim taraqqiyoti va uning qiyosiy tahlili qachonga borib taqalishini bilish lozim. Shu bois yurtimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yanada rivojlantirish uchun boshqa chet el maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ham o'rganishimiz lozim. Mamlakatlar, umuman rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi, undagi yutuqlar, taraqqiyoti haqida qiyosiy pedagogika fani shug'ullanib, ushbu fanning kelib chiqish tarixi ham mavjud.

Qiyosiy pedagogika dastlab falsafa fanlari sohasida shakllangan bo'lib, turli masalalarni, jumladan, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muammolarining jahon mamlakatlarda rivojlanish masalalarini ham o'rgangan. Qadim zamonlardayoq, falsafiy ta'limotlar mazmunida turli xalqlar va mamlakatlarda bolalarga qanday ta'lim-tarbiya berganliklari to'g'risida anchagina ma'lumotlar mavjud edi. Ularda ta'lim-tarbiya metodlari va qadriyatlarini



umumlashtirilgan bo'lib, katta avloddan yosh avlodga hayotiy tajribani qanday yetkazilayotganligining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan edi. Har bir millatning o'z milliy qadriyatlari mavjud, ularning asrdan asrga oshishida, albatta, yosh avlodlarning o'rni beqiyosdir. Zamonaviy tilda qiyosiy pedagogika komparativistika deb ham ataladi. Komparativizm (lot. comparativis-qiyosiy) qiyoslash va taqqoslash ma'nosini anglatib, tarixiy taraqqiyot tendensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlash, o'xshash hodisalarning o'zaro mos jihatlari ajratishni o'zida mujassamlashtiradi. Maktabgacha ta'lim sohasiga xorij tajribasini olib kirish keyingi yillarda jiddiy tus olmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida maktabgacha ta'lim sohasidagi yutuqlarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish pedagoglardan talab qilinadigan asosiy masalalardan biridir.

Jumladan, Germaniyada bolalar tarbiyasiga e'tibor juda yuqori. Buni mamlakatda "Oila" vazirligi tashkil etilganidan ham bilish mumkin. Bu yerda "Yugentamt" vakillari bola tug'ilgan zahotiy oq farzand ko'rgan oilaning sharoitlari bilan tanishadi. Ota-ona iqtisodiy jihatdan bola katta qilish imkoniga ega bo'lmasa yoki ma'naviy-axloqiy jihatdan noqobil (masalan, giyohvand, fohisha, piyonista) bo'lsa, bola unday ota-onadan olib qo'yiladi. Tarbiya masalasida olmonlar bola vaqtini bekor o'tkazmaslikka, uni ko'proq mashg'ul qilishga, bo'sh vaqtlarini bekor o'tkazmaslikka harakat qilishadi. Germaniyada bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga hokimiyat joylashtiradi. Bolalarni etnik kelib chiqishi, qaysi dinga e'tiqod qilishi haqida ma'lumotlar yig'iladi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bunga juda katta e'tibor qaratiladi. Islom diniga mansub bolalar ovqatiga cho'chqa go'shti qo'shilmaydi, ular uchun alohida taom tayyorlanadi.

Fransiyada esa bolalarni chaqaloqlik davridanoq bolalar bog'chasiga berish odatiy holga aylangan. Birinchidan, bu ayollarga ishlash imkoniyatini bersa, ikkinchidan, ular go'dakligidanoq jamoaga moslashadi va mustaqil bo'lib o'sadilar. Fransuz bolakay yoshligidanoq o'zi mustaqil maktabga boradi, do'kondan narsa xarid qiladi, uyda yolg'iz qoladi. Onalar o'z farzandlariga ovozlarini ko'tarib urishishsa-da, hech qachon urmaydilar. Jamiyat qator qonunlar orqali bola huquqlarini himoya qiladi. Ota-onalar va vasiy shaxslar birinchi galda bolalarning rivoji hamda sog'ligi uchun mas'ul shaxslar hisoblanadi.

Italiyada bolalar uch yoshgacha bog'chaga borishmaydi, ularning tarbiyasi bilan ota-onadan tashqari bobo va buvilari, xola, amma, tog'a-yu amakilari ham shug'ullanishadi. Kichkintoy katta oilada o'sadi. Italiyada bolalarning barcha injiqliklarini ko'tarishadi, doimo sovg'alar berishadi va deyarli jazolashmaydi. Ba'zida italiyalik ona bolasiga jahli chiqib baqirsa-da, ammo darhol uni o'pib,



quchoqlab, yupatishga tushadi. Italiyada bola bog'chaga uch yoshdan boshlab qatnaydi. Bu yerda unga o'qish va yozishni o'rgatib, maktabga tayyorlashadi, jamoaga moslashishni o'rgatishadi. Doimiy ravishda jamoaviy o'yinlar, spektakllar qo'yiladi, haftada ikki marotaba birorta xorijiy til o'rgatiladi va ular maktabga chiqish uchun turli ko'nikma va malakalarni olishadi, do'stlar bilan muloqotga kirishishni o'rganishadi.

Yaponiyada esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha rivojlangan. Yaponiyada maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagi vazifalarni hal qiladi: bolaga kattalar va bolalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishga yordam berish, tabiatni hurmat qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini egallash. Yaponiyada maktabgacha ta'lim ijobiy baholanadi: u buzilib ketmaydigan, boshqa bolalar bilan ishlashga qodir bolani tarbiyalashga yordam beradi. Bundan tashqari, Yaponiyada gimnastika, musiqa, raqs, san'at, suzish va boshqalar uchun qo'shimcha maktablar, shuningdek ular joylashgan universitetlarga kirishga tayyorgarlik ko'radigan xususiy bolalar bog'chalari mavjud.

Yaponiyada bolalar bog'chasida soat 7.00 dan boshlab har kim bir-biri bilan bemalol o'ynaydi, 9.30 da "Hamma narsani joyiga qo'ying" qo'shig'i tinglanadi, shundan keyin bolalar ko'chada 10 ta kulgili musiqa bilan mashq qilishadi. Dam olish daqiqasida, "Hamma o'z guruhlarida" qo'shig'i tinglanadi va bolalar foyesda poyabzallarini yechib, guruhlarga qaytib kelishadi. Bolalar hisoblanib, yilning vaqti haqida gapirishadi. Keyin o'qituvchining rahbarligi ostida bolalar ish daftaridagi topshiriqni 30 daqiqaga sanab, rang berish uchun bajarishadi. Topshiriqni bajarayotib, bolalar o'yinlarni boshlashadi. Bunday o'yinlarning 20 daqiqasidan so'ng ovqatga tayyorgarlik boshlanadi. Bolalar nonushtani uydan qutiga olib kelishadi, stakan va salfetakalarni olishadi. Uydan olib kelingan narsalarga bolalar bog'chasi issiq idish va bir shisha sut qo'shadi. Keyin bolalar birgalikda qo'shiq kuylashadi va ovqatlanishni boshlaydilar, har biri o'z tezligida ovqatlanadi - 10 dan 45 minutgacha. Tarbiyachi har kuni bolalar bilan har xil stollarda o'tiradi. Ovqatlangach, har bir bola tayoq, qutini olib tashlaydi. Eng qiziqarlisi shundaki, yaponiyaliklar bolalarni tarbiyalash uchun "noyob yapon usulidan" foydalanishadi va bu usun quyidagicha:

"5 yoshgacha bola podshohdir, 5 yoshdan 15 yoshgacha - qul, 15 yoshdan keyin esa tengdir". Boshqa xalqlar ushbu bayonotni turli xil talqin qilishadi. Albatta, bu falsafiy iborani tom ma'noda qabul qilmaslik kerak. Ammo, haqiqatan ham, bolaning hayoti bir necha davrlarga bo'lingan va birinchisi, bolani hayratda



qoldiradigan, uni sevadigan va erkalaydigan. Yoshi bilan, zavq-shavqlarga qo'shimcha ravishda, bola o'z harakatlariga va bir qator vazifalarga javobgardir, o'sib-ulg'ayishning ma'lum bosqichiga erishgan holda, kechagi bola jamiyatning to'laqonli va teng huquqli a'zosi bo'ladi. Bularning barchasi Yaponiyada bolalarning ta'lim tizimida uyg'un va izchil kuzatilgan va bugungi kunda bu usul kutilgandek natija bergan.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatimizning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlarimiz bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim sohasining ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirishi, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lishi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymasligi, qisqacha aytganda, komillikka erishishi uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy sharti sifatida ko'rmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saydullayeva, N. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati. *Мaktabgacha ta'lim jurnali*, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://journal.jdpu.uz/index.php/presedu/article/view/3872>
2. Risbaevna, E.P. 2022. Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlari Tarbiyachilarining Kasbiy Kompetensiyalarini Rivojlantirish. *International Journal on Integrated Education*. 5, 6 (Jun. 2022), 468-471.
3. O'zbekiston olimlari va yoshlarning inovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari mavzusidagi konfrensiya., Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining axborotlar bilan ishlash kompetentligini oshirish. Abdullayeva Sabohat G'ayratullayevna. Toshkent-2021. *Confrensiya.uz*.
4. Ergasheva, B. (2022). TALABALARINING PEDAGOGIK MODERINIZATSIYA SHAROITIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. *Science and innovation*, 1(B7), 401-405.
5. Barno, E. (2023). O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TALIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY TIZIMI. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(3), 103-105.
6. N.I.Sadullayeva *Uslubiy qo'llanma*. Toshkent-2022.



7. Ergasheva, B., Maxmudova, D., & Ramozonova, B. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 2(10), 118–122.
8. MARASULOVA, D. (2022). NIGMATULLAEVNA Interactive and Problem-Situational Methods of Teaching English to Children of Senior Preschool Age. Spanish Journal of Society and Sustainability.—Published February, 8, 12-15.